

SMART-KONTRAKT VA AN'ANAVIY SHARTNOMALARNING TAQQOSIY TAHLILI

Muhammadiyev Samariddin Iskandar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura bosqichi, Sport huquqi yo'nalishi 05-guruh talabasi.

Tel: +998 94 999 36 66 e-mail: sammukhammadiev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15620216>

Annotatsiya. Ushbu maqola smart-kontraktlar va an'anaviy shartnomalarning o'xshash va farqli jihatlarini taqqosiy tahlil qiladi. Maqolada ularning mohiyati, tuzilishi, ijro etilishi, qo'llanilish sohalari ko'rib chiqiladi. Alohida e'tibor smart-kontraktlarni tuzish, ijro etish va buzishning huquqiy oqibatlariga qaratiladi. Tahlil natijasida smart-kontraktlarning afzalliklari va cheklovlari aniqlanadi hamda ularning zamonaviy fuqarolik huquqidagi o'rni baholanadi.

Kalit so'zlar: smart-kontrakt, an'anaviy shartnoma, taqqosiy tahlil, blokcheyn, avtomatik ijro, huquqiy oqibatlar.

Kirish.

Texnologik taraqqiyot shartnoma huquqiga yangi shakllarni olib kirdi. Blokcheyn texnologiyasi asosidagi smart-kontraktlar an'anaviy shartnomalarga nisbatan o'ziga xos yondashuvni taklif etadi. Ushbu maqola smart-kontraktlar va an'anaviy shartnomalarning fundamental xususiyatlarini qiyosiy o'rganish orqali ularning o'xshashliklari va farqlarini aniqlashga qaratilgan. Maqsad – har ikki turdagi shartnomaning imkoniyatlari va cheklovlarini tushunish orqali ularning zamonaviy huquqiy muhitdagi ahamiyatini belgilashdir. Maqolaning markaziy qismlaridan biri smart-kontraktlarning huquqiy oqibatlarini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

An'anaviy shartnoma: mohiyati va xususiyatlari.

An'anaviy shartnoma – bu ikki yoki undan ortiq tomonning o'zaro huquq va majburiyatlarini o'rnatish, o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha erishilgan kelishuvdir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasi shartnomani bir yoki bir necha shaxsning boshqa bir yoki bir necha shaxs bilan fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi sifatida ta'riflaydi. Xususan, Fuqarolik kodeksining 353-moddasiga asosan ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.

Shartnomalarga ushbu Kodeksning 9-bobida nazarda tutilgan ikki va ko'p taraflama bitimlar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

Shartnomadan kelib chiqqan majburiyatlarga, agar ushbu bobning qoidalarida va ushbu Kodeksda shartnomalarning ayrim turlari to'g'risida bayon etilgan qoidalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llaniladi.

Ikkitadan ortiq taraflar tuzadigan shartnomalarga, bunday shartnomalarning ko'ptaraflamalik xususiyatiga zid bo'lmasa, shartnoma to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llaniladi.¹

Shunga muvofiq an'anaviy shartnomalarning asosiy xususiyatlari kelishuvga asoslanganlik, yozma yoki og'zaki shaklda bo'lishi mumkinligi, ijrosining inson omiliga bog'liqligi va nizolarni hal etish uchun sud yoki arbitraj mexanizmlarining mavjudligidir.

Smart-kontrakt: mohiyati va xususiyatlari.

Smart-kontrakt – bu blokcheyn texnologiyasida kodlangan, oldindan belgilangan shartlar bajarilganda avtomatik ravishda ijro etiladigan kompyuter dasturidir. U o'z-o'zini ijro etuvchi algoritm bo'lib, shartlar bajarilganda hech qanday vositachisiz operatsiyalarni amalga oshiradi.

Gideon Greenspan fikricha “*aqlli shartnoma* bu –blokcheynda saqlanadigan va blokcheyn bitimlaridan kelib chiqqan holda ushbu Blokcheyn axborotlar bazasida ma'lumotlarni o'qiydigan va yozadigan kodlar to'plamidir”.²

A.N.Yakubov “smart kontrakt” –“aqlli shartnoma” bu –taraflardan kamida bittasi shaxs bo'lmagan, tuzilishi va amalga oshirilishi to'liq avtomatlashtirilgan, muallifining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishgan deb hisoblanishi uchun yetarli bo'lgan hatti-harakatlarni sun'iy intellekt yordamida baholaydigan, avvaldan yaratilgan dasturiy ta'minot va algoritmarga asoslangan, yaratuvchisida shartnomaviy munosabatlar birga mualliflik huquqini paydo qiladigan elektron shartnomadir – deb fikr bildiradi.³ Shuningdek, Fayzullayev M.S O'zbekistonda ilk marotaba «aqlli shartnoma» atamasiga huquqiy ta'rif berar ekan: ““Smart kontrakt” bu raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma”, - deya ta'kidlaydi.⁴

Smart-kontraktlarning asosiy xususiyatlari avtomatik ijro, shaffoflik (blokcheynda qayd etilgani uchun), o'zgarmaslik (kodni o'zgartirish qiyinligi) va faqat raqamli shaklda mavjudligidir.

Shundan kelib chiqib ikki shartnoma turning farqini turli munosabatlardan kelib chiqib aytishimiz mumkin.

Xususan, *tuzilish va shakl jihatidan:*

* An'anaviy shartnoma: Yozma (oddiy, notarial), og'zaki yoki jim turish orqali tuzilishi mumkin. Matn, hujjat shaklida ifodalanadi.

* Smart-kontrakt: Faqat raqamli kod (dastur) shaklida mavjud bo'ladi. Blokcheyn platformasida joylashtiriladi.

Ijro mexanizmi jihatidan:

* An'anaviy shartnoma: Tomonlarning ixtiyori, harakatlari yoki uchinchi shaxslarning harakatlari orqali ijro etiladi.

* Smart-kontrakt: Kodda belgilangan shartlar bajarilganda avtomatik ravishda, inson aralashuvisiz ijro etiladi.

¹ Fuqarolik kodeksi. 353-moddasi. <https://lex.uz/docs/-111189>

² Greenspan G. Smart contracts and the dao implosion //website, <https://www.multichain.com/blog/2016/06/smart-contracts-the-dao-implosion>. –2016.

³ Yakubov Axtam Nusratilloevich «Fuqarolik huquqiy munosabatlarda “Aqlli(smart) shartnomalar” va uni samarali tatbiq qilish masalalari. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. Jild 2-son. ISSN 2181-9130 Doi Journal 10.26739/2181-9130.

⁴ <https://cyberleninka.ru/article/n/smart-shartnomalar-aqlli-shartnomalar-va-ularning-qo'llanishi/viewer>

Shaffoflik jihatidan:

- * An'anaviy shartnoma: Odatda, faqat shartnoma tomonlari uchun shaffof bo'ladi.
- * Smart-kontrakt: Blokcheynda qayd etilganligi sababli, ko'pincha barcha ishtirokchilar uchun shaffofdir (kontrakt kodi va tranzaksiyalar).

O'zgarimaslik jihatidan:

- * An'anaviy shartnoma: Tomonlarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.
- * Smart-kontrakt: Blokcheynga yozilgandan so'ng o'zgartirish juda qiyin yoki imkonsiz bo'lishi mumkin.

Ishonchlilik jihatidan:

- * An'anaviy shartnoma: Tomonlarning vijdoniga, reputatsiyasiga va huquqiy tizimga ishonishga asoslanadi.
- * Smart-kontrakt: Kodning aniqligi va blokcheyn texnologiyasining xavfsizligiga asoslanadi.

Nizolarni hal etish:

- * An'anaviy shartnoma: Nizolar sud, arbitraj yoki mediatorlik orqali hal etiladi.
- * Smart-kontrakt: Ko'p hollarda nizolarning oldini oladi (avtomatik ijro tufayli), lekin talqin qilishda nizolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar an'anaviy usullar bilan hal qilinadi.

Qo'llanilish sohalari jihatidan:

- * An'anaviy shartnoma: Barcha sohalarda keng qo'llaniladi.
- * Smart-kontrakt: Ko'proq avtomatlashtirilgan tranzaksiyalar, raqamli aktivlar, ta'minot zanjirlari va shunga o'xshash sohalarda qo'llaniladi.

Smart-kontraktlar hamda an'anaviy shartnomalarining huquqiy oqibatlari.

Smart-kontraktlarni tuzish, ijro etish va buzish an'anaviy shartnomalardan sezilarli farq qiladigan huquqiy oqibatlarga olib keladi.

Tuzishning huquqiy oqibatlari:

An'anaviy shartnoma taraflarning irodasini ifodalovchi hujjat (yozma) yoki kelishuvi (og'zaki) orqali tuziladi. Smart-kontrakt esa dastlab dasturiy kod shaklida yaratiladi va blokcheynga joylashtirilishi bilan huquqiy kuchga ega bo'lishi mumkin. Smart-kontraktni tuzish vaqti ko'pincha uning blokcheynga muvaffaqiyatli joylashtirilishi va tarqatilishi bilan bog'liq. Masalan raqamli san'at asarini sotish bo'yicha NFT (non-fungible token) yaratish va uni smart-kontrakt bilan bog'lash jarayonida, smart-kontrakt blokcheynga joylashtirilganda, sotuv shartlari (narx, mualliflik huquqlari va boshqalar) qayd etiladi. Bu smart-kontraktning tuzilishi va uning shartlari bo'yicha kelishuvga erishilganligini anglatadi.

Ijro etishning huquqiy oqibatlari:

An'anaviy shartnomaning ijrosi ko'pincha taraflarning faol harakatlarini talab etadi. Smart-kontrakt esa kodda belgilangan shartlar bajarilganda avtomatik tarzda ijro etiladi. Bu ijroning tezligi va xolisligini ta'minlaydi. Masalan, sug'urta bo'yicha smart-kontraktda, agar ma'lum bir hodisa (masalan, reysning kechikishi) sodir bo'lsa va bu ma'lumotlar ishonchli manbadan (masalan, aeroport ma'lumotlari bazasidan) smart-kontraktda yetib kelsa, to'lov

sugʻurtalangan shaxsga avtomatik ravishda oʻtkazilishi mumkin. Bu jarayonda sugʻurta kompaniyasining qoʻshimcha tasdigʻi talab etilmaydi.

Buzishning huquqiy oqibatlari:

Anʼanaviy shartnoma buzilganda, jabrlangan taraf sudga murojaat qilib, buzgan tarafdin majburiyatni bajarishni yoki zararni qoplashni talab qilishi mumkin. Smart-kontrakt buzilganda esa, oqibatlar kodda oldindan belgilab qoʻyilgan boʻlishi mumkin. Biroq, kodda kutilmagan xatolar mavjud boʻlsa yoki shartlar toʻliq aks ettirilmagan boʻlsa, huquqiy nizolar yuzaga kelishi mumkin. Bu holatda anʼanaviy tarzda ham hal qilinishi mumkin.

Shunday qilib, smart-kontraktlarning huquqiy oqibatlari ularning texnologik asosiga chambarchas bogʻliq boʻlib, anʼanaviy shartnomalardan farqli yondashuvni talab etadi. Bu esa smart-kontraktlarni huquqiy tartibga solishda alohida eʼtiborni zarurligini koʻrsatadi.

Xulosa.

Smart-kontraktlar va anʼanaviy shartnomalar har biri oʻziga xos afzalliklari va kamchiliklariga ega. Anʼanaviy shartnomalar moslashuvchanligi va nozik vaziyatlarni hisobga olish qobiliyati bilan ajralib tursa, smart-kontraktlar avtomatlashtirish, shaffoflik va ishonchlilikni taʼminlaydi. Smart-kontraktlarni tuzish, ijro etish va buzishning huquqiy oqibatlari ularning texnologik mohiyatidan kelib chiqadi va anʼanaviy huquqiy tushunchalarga yangi talablarni qoʻyadi. Kelajakda smart-kontraktlar shartnoma huquqining muhim qismiga aylanishi kutilmoqda va ularning puxta huquqiy tartibga solinishi bu jarayonni yanada tezlashtiradi.

REFERENCES

1. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
2. Yakubov Axtam Nusratilloevich «Fuqarolik huquqiy munosabatlarda “Aqlli(smart) shartnomalar” va uni samarali tatbiq qilish masalalari. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. Jild 2-son. ISSN 2181-9130 Doi Journal 10.26739/2181-9130.
3. Greenspan G. Smart contracts and the dao implosion //website, <https://www.multichain.com/blog/2016/06/smart-contracts-the-dao-implosion>. –2016.
4. Szabo N. The idea of smart contracts // Nick Szabo’s Papers and Tutorials – 1997.
S. Nakamoto, Bitcoin: a peer-to-peer electronic cash system. (2008)<https://cyberleninka.ru/article/n/smart-shartnomalar-aqlli-shartnomalar-va-ularning-qo-llanishi/viewer>
6. lex.uz